


FARG'ONA VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-mart, dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3 146,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 367,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 101,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 778,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 261,1 mlrd. so'mni (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Marg'ilon (104,3 %), Farg'ona (104,2 %), Qo'qon (103,2 %), shaharlarida, shuningdek, Quva (101,2 %), Qo'shtepa (100,1 %), va Uchko'prik (100,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%) da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 1,6 % ga kamaygan va 367,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,7 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 778,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,9 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,3 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%) da


2019-yil
yanvar-mart



2020-yil
yanvar-mart




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Chakana savdo aylanmasida

yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi, (%) da



■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

■ Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa (99,8 %), Farg'ona (99,4%) So'x (99,0), Furqat (98,0 %) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko'rinib turibdi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Farg'ona (26,0 %), Qo'qon (17,3 %) va (8,4 %) Quvasoy shaharlarida kuzatilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mlrd.so'm)	2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Farg'ona viloyati	367,2	98,4	2 778,9	102,9
Shaharlar				
Farg'ona	219,9	107,3	626,4	103,2
Qo'qon	81,2	98,7	388,7	104,1
Quvasoy	6,0	119,7	66,0	100,8
Marg'ilon	14,2	68,0	237,1	107,8
Tumanlar				
Oltiariq	4,2	97,2	113,8	102,2
Qo'shtepa	0,4	182,4	180,6	100,0
Bag'dod	8,8	61,7	101,8	106,7
Buvayda	2,5	138,2	105,1	99,8
Beshariq	2,1	97,4	98,6	101,6
Quva	4,4	67,7	146,6	102,7
Uchko'prik	3,8	201,2	114,5	98,4
Rishton	3,5	49,5	75,3	106,3
So'x	0,5	205,9	45,1	100,0
Toshloq	6,3	93,8	70,4	101,0
O'zbekiston	2,7	110,2	84,6	101,1
Farg'ona	0,6	10,4	106,7	105,9
Dang'ara	2,0	104,6	71,3	101,1
Furqat	1,0	118,8	49,4	99,8
Yozyovon	2,9	90,5	96,9	102,2




FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Aholi jonboshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	2019-yilning yanvar- mart oylariga nisbatan, % da
Farg'ona viloyati	836,9	100,5
shaharlar		
Farg'ona	2924,0	102,5
Qo'qon	1856,0	101,5
Quvasoy	771,3	100,4
Marg'ilon	1067,7	102,6
tumanlar		
Oltiariq	836,9	100,1
Qo'shtepa	559,4	98,2
Bag'dod	954,7	98,7
Buvayda	514,9	98,4
Beshariq	473,9	99,7
Quva	442,5	99,4
Uchko'prik	586,6	98,1
Rishton	519,4	99,3
So'x	391,4	98,6
Toshloq	585,1	98,4
O'zbekiston	380,7	99,4
Farg'ona	366,5	98,4
Dang'ara	505,3	99,2
Furqat	423,6	98,6
Yozyovon	428,9	99,7


Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%) da



2020-yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 836,9 ming so'mni tashkil qilib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 100,5 % ni tashkil etgan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (2924,0 ming so'm), Qo'qon (1856,0 ming so'm) va Marg'ilon (1067,7 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston (366,5 ming so'm), Toshloq (380,7 ming so'm) va Rishton (391,4 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Jumladan, 2020-yilning yanvar-mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,4 % ni tashkil etib, 42,9 mlrd. so'mga yetdi yoki 2019-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 7,2 % ga kamaygan. Bunda jami savdo aylanmasining 72,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasidagi ulushi kuzatilib, nisbatan, Farg'ona (24,6 %), Qo'qon (5,1 %) va Marg'ilon (3,3 %) shaharlarida qayd etildi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI DEHQON VA CHORVA BOZORLARI

2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 43 541,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (14 537,9 mlrd. so'm) to'g'ri keldi. Shulardan ayrimlarini suratlar ko'rinishida kuzatamiz.

14 537,9



**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

1 071,7



Tuzlamalar

483,7



Tuxum

1 184,2



**Sut va sut
mahsulotlari**

1 007,3



**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)**

2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 54 811,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 41 443,9 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 12 516,5 mlrd. so'mni, otlar 663,9 mlrd. so'mni, parrandalar 217,6 mlrd. so'mni tashkil etdi



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-mart)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 259,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,0 % ga kamaygan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra 1 040,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,3 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 82,6 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon, Quvasoy shahar, Qo'shtepa, Buvayda, Beshariq (100,0 %) hamda Dang'ara (99,7 %), Uchko'prik (99,5 %) va Oltiariq (98,1 %), tumanlarida yuqori bo'lgan.

Yirik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridagi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)da

Tuman shaharlar nomi	Yirik korxonalarining ulgurji savdodagi ulushi	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridagi tovar aylanmasidagi ulushi
Farg'ona viloyati	17,4	82,6
shaharlar		
Farg'ona	43,5	56,5
Qo'qon	21,0	79,0
Quvasoy	-	100,0
Marg'ilon	-	100,0
tumanlar		
Oltiariq	1,9	98,1
Qo'shtepa	0,0	100,0
Bag'dod	39,6	60,4
Buvayda	0,0	100,0
Beshariq	0,0	100,0
Quva	0,0	100,0
Uchko'prik	0,5	99,5
Rishton	3,5	96,5
So'x	6,1	93,9
Toshloq	0,5	99,5
O'zbekiston	0,1	99,9
Farg'ona	0,0	100,0



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Dang'ara	0,3	99,7
Furqat	0,0	100,0
Yozyovon	0,7	99,3

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 17,4 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Farg'ona shaharda (43,5 %), Bog'dod tumanida (39,6 %) hamda Qo'qon (21,0 %) shaharlarda kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	2019- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	2019- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mlrd.so'm)	2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Farg'ona viloyati	1 259,5	98,0	219,0	88,3	1040,5	100,3
shaharlar						
Farg'ona	403,9	92,8	175,7	78,5	228,2	108,5
Qo'qon	185,0	114,5	38,8	228,5	146,2	98,1
Quvasoy	21,0	97,1	-	-	21,0	97,1
Marg'ilon	173,4	100,2	0,0	6,1	173,4	100,2
tumanlar						
Oltiariq	26,7	100,2	0,5	455,7	26,2	98,7
Qo'shtepa	1,7	95,4	-	-	1,7	95,4
Bag'dod	7,5	63,2	3,0	36,6	4,5	121,1
Buvayda	18,7	98,1	-	-	18,7	98,1
Beshariq	14,2	98,3	-	-	14,2	98,3
Quva	9,9	96,2	-	100,0	9,9	96,2
Uchko'prik	46,5	95,5	0,2	38,9	46,3	96,1
Rishton	5,8	98,9	0,2	93,9	5,6	99,1
So'x	0,7	105,7	0,0	97,9	0,7	106,2
Toshloq	65,5	95,3	0,3	29,8	65,2	96,3
O'zbekiston	192,8	97,3	0,1	253,7	192,7	97,2
Farg'ona	11,1	102,8	-	0,0	11,1	104,7
Dang'ara	56,6	97,8	0,2	72,4	56,4	97,9
Furqat	7,5	95,9	-	-	7,5	95,9
Yozyovon	11,1	97,3	0,1	51,8	11,0	97,9

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)da



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Farg'ona shaharda (92,8 %) va Bag'dod (63,2 %) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:73-249-87-18